



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O'zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo'yimoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta'minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta'minlashda parlamentning o'rni va mas'uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o'ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda ekologik sohada qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o'zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta'minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o'rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta'minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo'nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo'nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

- birinchidan**, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash;
- ikkinchidan**, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;
- uchinchidan**, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;
- to'rtinchidan**, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;
- beshinchidan**, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;
- oltinchidan**, o'simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;
- yettinchidan**, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;
- sakkizinchidan**, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;
- to'qqizinchidan**, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	
EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI.....	49
G'afforov X. L.	
MENEJMENT VA BIZNES BOSHQARUVIDA EKOLOGIK, YONDASHUV, ESG TAMOIYILLARI, “YASHIL” STRATEGIYA VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI	58
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich	
РОЛЬ ГРУППЫ ДЕПУТАТОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	65
Алиханов Борий Батирович Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
YASHIL ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH HAMDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL PARTIYALARNING GLOBAL AHAMIYATI.....	69
Qo'chqorov Islomjon Nurali o'g'li Xursanov Kamoljon Erkinjon o'g'li	
RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIK SIYOSAT VA XAVFSIZLIK MASALALARI.....	73
Raximov Oybek Raimovich Xofizov Baxriddin Turdievich	
AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA TA'LIM IMKONIYATLARI (STEAM YONDASHUVI MISOLIDA).....	76
N. Matkarimova	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR PARLAMENTINI MUHIM DEMOKRATIK INSTITUT SIFATIDA SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLDAGI REJALAR.....	80
Abdullayev Muxammadqodir Mashxur o'g'li Xushvaqtov Feruzbek Ilxom o'g'li	
СОТРУДНИЧЕСТВО ПАРЛАМЕНТА УЗБЕКИСТАНА С ННО В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ	83
Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
OROLBO'YI MINTAQASIDA «SUV IQTISODIYOTI» VA «YASHIL OBLIGATSIYALAR» (GREEN BONDS) TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA QONUNCHILIK MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	87
Otamuratov Oybek Baxtiyorovich	



INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING IJTIMOY PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	93
Xodjayeva Mohira Mirzahmadovna	
KORXONALARNING BARQAROR RIVOJLANISH TIZIMIDA EKOLOGIK VA IJTIMOY KO'RSATKICHLAR AUDITI.....	97
Akbarov Azizbek Abdusattarovich	
O'ZBEKISTONDA XALQARO BIZNESNING BARQAROR RIVOJINI TA'MINLASHDA MARKETING VA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI.....	103
Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi	
TOZA HUDUDDAN YASHIL TAFAKKURGA — EKOLOGIK ISLOHOTLARNING AMALIY NATIJALARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	107
Alimardonova Z. M.	
SUV RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH — BARQAROR TARAQQIYOT OMILI	111
Jo'rayev Komiljon Begmonovich	
Xudoyqulov Avloqul Nurmanovich	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH SHAROITIDA SHAHAR VA SANOAT HUDUDLARINI «YASHIL» ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY KAFOLATLARI	114
Berdiqulova Munira Faxriddin qizi	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA XALQARO HUQUQIY STANDARTLARNI O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH: XALQARO MAJBURIYATLAR IJROSI USTIDAN PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	118
Egamberdiyeva Sevara Baxodir qizi	
EKOLOGIK MASALALARDA PARLAMENTLARARO HAMKORLIK VA XALQARO TAJRIBA ALMASHINUVI	123
Ergasheva Nodira Toxir qizi	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHUV SIYOSATIDA FARG'ONA VILOYATINING YEROSTI SUVLARI MONITORINGI.....	127
Abdulxayev Zoxidjon	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENT NAZORATINING NATIJADORLIGI: INSTITUTSIONAL MEZONLAR.....	132
Saburova Juldizxan Axmetovna	

O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENT NAZORATINING NATIJADORLIGI: INSTITUTSIONAL MEZONLAR



Saburova Juldizxan Axmetovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Siyosiy fanlar kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0009-0005-1822-0786

Annotatsiya. Mazkur tezisdá O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash jarayonida parlament nazoratining institutsional imkoniyatlari va natijadorlik mezonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy gipotezasiga ko'ra, nazorat samaradorligi uning shakllari yoki tadbirlari soni bilan emas, balki mustaqil axborotdan foydalanish, aniq vazifa va indikatorlarni belgilash, ijroni izchil kuzatish hamda qarorlarni o'lchanadigan ekologik natijaga aylantirish qobiliyati bilan belgilanadi. 2025-yildagi suv resurslari bo'yicha parlament so'rovi asosida natijaviy ekologik parlament nazoratining olti bosqichli modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: ekologik xavfsizlik, parlament nazorati, siyosiy hisobdorlik, ekologik boshqaruv, postlegislativ nazorat, ekologik indikator.

Аннотация. В тезисе анализируются институциональные возможности и критерии результативности парламентского контроля в обеспечении экологической безопасности Узбекистана. Основная гипотеза состоит в том, что эффективность контроля определяется не количеством его форм и мероприятий, а способностью парламента использовать независимую информацию, устанавливать конкретные задачи и индикаторы, последовательно отслеживать исполнение и преобразовывать решения в измеримые экологические результаты. На основе парламентского запроса 2025 года по вопросам водных ресурсов предложена шестиступенчатая модель результативного экологического парламентского контроля.

Ключевые слова: экологическая безопасность, парламентский контроль, политическая подотчётность, экологическое управление, постзаконодательный контроль, экологический индикатор.

Abstract. The thesis examines the institutional capacity and performance criteria of parliamentary oversight in ensuring environmental security in Uzbekistan. Its central hypothesis is that oversight effectiveness depends not on the number of formal instruments or hearings, but on parliament's ability to use independent evidence, define measurable tasks and indicators, monitor implementation consistently, and translate decisions into observable environmental outcomes. Drawing on the 2025 parliamentary inquiry concerning water resources, the study proposes a six-stage model of results-oriented environmental parliamentary oversight.

Keywords: environmental security, parliamentary oversight, political accountability, environmental governance, post-legislative scrutiny, environmental indicator.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida tabiatga munosabat jamiyatning faqat iqtisodiy imkoniyatlarini emas, balki uning ma'naviy mas'uliyati, siyosiy yetukligi va kelajak oldidagi javobgarligini ham namoyon etib kelgan. Shu ma'noda, ekologik xavfsizlikni ayrim tabiiy resurslarni muhofaza qilishga qaratilgan tor tarmoq siyosati sifatida tushunish yetarli emas. Uning mazmunida aholi salomatligi, suv va oziq-ovqat ta'minoti, hududlarning yashashga yaroqliligi, tabiiy boyliklardan adolatli foydalanish hamda kelajak avlodlar manfaatlarini



himoya qilish kabi bir-biriga bog'langan hayotiy vazifalar mujassamdir. Darhaqiqat, havo ifloslanishi, suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi yoki yashil hududlarning qisqarishi ko'pincha bir kunlik qarorning emas, balki energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish va hududiy rivojlanish sohalarida yillar davomida qabul qilingan qarorlarning yig'ma oqibatidir. Demak, ekologik xavfsizlikni ta'minlash qonunchilik sifati, davlat mablag'larining maqsadli yo'naltirilishi, ijro organlarining hisobdorligi hamda jamiyat manfaatlarining siyosiy ifodalanishini yagona tizimda uyg'unlashtirishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida har kimning qulay atrof-muhitga hamda uning holati to'g'risida ishonchli axborotga ega bo'lish huquqi mustahkamlangan; 94-moddada esa Qonunchilik palatasining Davlat budjeti ijrosini nazorat qilish, hukumat a'zolarining hisobotlarini eshitish va parlament so'rovlarini yuborish vakolatlari belgilangan [1]. Bir tomondan, fuqarolarning ekologik huquqi davlat siyosatining mazmuni chegarasini belgilasa, ikkinchi tomondan, parlament nazorati mazkur huquqni ta'minlash bo'yicha davlat majburiyatining qay darajada bajarilayotganini xalq nomidan baholash imkonini beradi. Zero, huquq e'lon qilinishi bilan emas, uning ro'yobga chiqishini ta'minlovchi institutlar izchil ishlaganda ijtimoiy qadriyatga aylanadi.

To'g'ri, parlament majlisi o'tkazilishi, vazir axborotining tinglanishi yoki so'rov yuborilishi nazorat jarayonining zarur belgilaridir, ammo nazoratning tashqi shakli bilan uning haqiqiy samarasi aynan bir narsa emas. Hisobot eshutilishi mumkin, biroq undagi raqamlar mustaqil tekshirilmasligi; tavsiya berilishi mumkin, ammo uning muddati, mas'ul subyekti va o'lchanadigan natijasi ko'rsatilmaligi; mablag' ajratilishi mumkin, lekin sarflangan resurs bilan ekologik o'zgarish o'rtasidagi nisbat baholanmasligi mumkin. Shu munosabat bilan tadqiqotning asosiy savoli quyidagicha qo'yiladi: O'zbekistonda amaldagi parlament nazorati mexanizmlari ekologik boshqaruv organlarining haqiqiy hisobdorligini, qonunlar va davlat dasturlarining izchil ijrosini hamda ekologik xavfsizlikka doir o'lchanadigan natijalarni qay darajada ta'minlamoqda?

Ekologik xavfsizlik sohasidagi parlament nazoratining samaradorligi nazorat shakllarining ko'pligi yoki o'tkazilgan tadbirlar soni bilan emas, balki parlamentning mustaqil va ishonchli axborot olish, ijro organlari faoliyatini oldindan belgilangan ekologik indikatorlar asosida baholash, qarorlarda aniq vazifa, muddat va mas'ul subyektni ko'rsatish, ijroni muntazam kuzatish hamda nazorat natijalarini qonunchilik, budget va tashkiliy qarorlarga aylantirish qobiliyati bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, parlament nazoratining samaradorligi savol berish vakolati bilan birga, olingan javoblar asosida tegishli siyosiy-huquqiy choralarni shakllantirish imkoniyatiga ham bog'liq.

Institutsional yondashuv va nazoratning mazmuni. Mazkur masalani ilmiy jihatdan tushuntirishda yangi institutsionalizm, siyosiy hisobdorlik va postlegislativ nazorat konsepsiyalari bir-birini to'ldiruvchi, mazmunan o'zaro bog'langan nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. AQShning Stanford universitetida faoliyat yuritgan siyosatshunos va tashkilotlar nazariyotchisi James G. March hamda Norvegiyaning Bergen universiteti professori, davlat boshqaruvi va siyosiy institutlar faoliyatini tadqiq etgan Johan P. Olsen tomonidan rivojlantirilgan yangi institutsionalizm siyosiy institutlarni tashqi manfaatlarining oddiy aks-sadosi sifatida emas, balki o'z qoidalari, vakolatlar taqsimoti, ish uslubi, axborot kanallari va shakllangan an'analari orqali siyosiy jarayonning mazmuni hamda natijalariga mustaqil ta'sir ko'rsatuvchi tuzilmalar sifatida talqin qiladi [4]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqilsa, parlamentning ekologik siyosatga ta'sirini ayrim deputatlarning shaxsiy faolligi yoki tashabbuskorligi bilangina izohlash yetarli emas, chunki bu ta'sir, eng avvalo, qo'mitalarning huquqiy maqomi, ekspert-tahliliy salohiyat, ekologik monitoring ma'lumotlariga kirish imkoniyati, qabul qilingan qarorlar ijrosini qayta ko'rib chiqish tartibi hamda institutsional xotirani saqlash mexanizmlarining qay darajada shakllanganiga bog'liqdir.

Niderlandiyaning Utrecht universiteti Boshqaruv maktabida davlat boshqaruvi professori sifatida faoliyat yuritgan, ommaviy hisobdorlik va demokratik boshqaruv masalalari bo'yicha taniqli olim Mark Bovens hisobdorlikni aktor o'z xatti-harakatini tushuntirishi va asoslashi shart bo'lgan, forum esa savol berish, dalillarni tekshirish va siyosiy-huquqiy baho chiqarish vakolatiga ega bo'lgan munosabat sifatida izohlaydi [5]. Ekologik siyosat nuqtayi nazaridan qaranganda, ijro organi yoki mansabdor shaxs hisob beruvchi aktor, parlament esa xalq nomidan savol qo'yuvchi va baho beruvchi forumdir. To'g'ri, vazirning ma'ruza qilishi yoki yozma axborot taqdim etishi hisobdorlik jarayonining muhim bo'g'inidir, ammo u mazkur jarayonning yakuni emas, balki boshlanishidir; zero, axborot berishdan keyin savol va munozara, parlament bahosi, aniq qaror, ijroni kuzatish va muayyan siyosiy-huquqiy oqibat yuzaga kelishi lozim. Ana shu bo'g'inlardan birortasi uzilsa, nazorat tadbiri tashkiliy jihatdan mavjud bo'ladi, biroq hisobdorlik munosabati mazmunan to'liq yakunlanmaydi.

Parlament faoliyati va demokratik hisobdorlik masalalari bo'yicha mutaxassis, Westminster Foundation for Democracy tashkilotida faoliyat yuritgan Franklin De Vrieze hamda Buyuk Britaniyaning Hull universiteti siyosatshunoslik professori Philip Norton tomonidan rivojlantirilgan postlegislativ nazorat konsepsiyasi esa qonun chiqarish jarayoni qonun qabul qilingani bilan tugamasligini asoslab beradi [6]. Ularning qarashlariga ko'ra, qonunning amaliy ahamiyati uning muhokama va qabul qilish jarayonigina emas, balki belgilangan maqsadlarning amalda qay darajada ro'yobga chiqarilgani bilan ham belgilanadi. Ekologik qonunchilik uchun bu qoida ayniqsa muhimdir, chunki dastur tasdiqlanishi, monitoring stansiyasi o'rnatilishi yoki mablag'



o'zlashtirilishi muayyan faoliyat amalga oshirilganini bildiradi, ammo chiqindi hajmi kamaymasa, havo sifati yaxshilanmasa, suv yo'qotishlari qisqarmasa yoki ekologik huquqbuzarliklar soni pasaymasa, ushbu faoliyatni yakuniy natija sifatida baholab bo'lmaydi. Demak, postlegislativ nazorat parlamentni qonunning mavjudligini emas, uning ishlayotganini, davlat dasturining qabul qilinganini emas, uning ekologik maqsadga olib kelganini, sarflangan mablag'ni emas, sarf natijasida qanday o'zgarish yuz berganini tekshirishga undaydi.

O'zbekiston amaliyoti: suv resurslari bo'yicha parlament so'rovi. Mamlakatimiz qonunchiligida ekologik xavfsizlikni parlament vositalari orqali nazorat qilish uchun zarur huquqiy imkoniyatlar shakllangan. "Parlament nazorati to'g'risida"gi Qonunda budjet ijrosini ko'rib chiqish, hukumat va davlat organlari rahbarlarining hisobotlarini eshitish, parlament va deputatlik so'rovlari, qonunlar ijrosini joyiga chiqib o'rganish, qonunosti hujjatlari monitoringi hamda parlament tekshiruvi kabi shakllar nazarda tutilgan [2]. Shunday ekan, mavjud muammolarni parlament nazorati vositalarining yetishmasligi bilangina izohlash masalaga bir tomonlama yondashishga olib kelishi mumkin; masalaning asl mohiyati mavjud vakolatlarining qaysi mezonlar asosida, qanday izchillikda va qanday oqibat bilan qo'llanayotganidadir. Qonunchilik tegishli nazorat mexanizmlarini belgilaydi, ularning amaliy samaradorligi esa mazkur vakolatlarining qo'llanish natijalari orqali namoyon bo'ladi.

2025-yil 9-sentabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Suv xo'jaligi vaziriga suv resurslaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, magistral va ichki kanallarni betonlashtirish ishlarining borishi yuzasidan parlament so'rovini yuborish to'g'risida qaror qabul qilgan [3]. Mazkur tashabbusning siyosiy partiya fraksiyasi hamda Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi tomonidan ilgari surilgani parlament nazorati bir martalik munosabat emas, fraksiya, qo'mita va palata faoliyatini bog'lovchi ko'p bosqichli institutsional jarayon ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, suv tejash masalasining faqat texnik chora sifatida emas, davlat siyosati, budjet resurslari va mansabdor shaxslar hisobdorligi masalasi sifatida parlament kun tartibiga olib chiqilgani e'tiborlidir.

2025-yil 23-sentabrda vazirning yozma javobi Qonunchilik palatasida ko'rib chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga sug'orish tarmoqlarini betonlashtiruvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga subsidiya va imtiyozli kreditlar ajratish, suv obyektlarini soz holatda saqlovchi iste'molchilarga soliqliq imtiyozlari berish mexanizmlarini ko'rib chiqish tavsiya etilgan; tegishli qo'mitaga esa belgilangan chora-tadbirlar ijrosi ustidan parlament nazoratini davom ettirish topshirilgan [3]. Bu holat so'rov axborot olish bilangina cheklanmay, iqtisodiy rag'batlantirish, siyosiy baho va keyingi nazorat mexanizmlariga bog'langanini ko'rsatadi. Bovens modeli asosida qaralganda, hisob beruvchi aktor va baholovchi forum belgilangan, vazir axborot bergan, parlament taqdim etilgan javobni faqat axborot sifatida qabul qilish bilan cheklanmay, muayyan tavsiya ishlab chiqqan hamda kuzatuv vazifasini yuklagan. Demak, hisobdorlik axborotdan bahoga, bahodan qarorga, qarordan esa keyingi nazoratga o'tish yo'nalishida shakllanmoqda.

Ushbu amaliyotning siyosiy-huquqiy ahamiyatini e'tirof etgan holda, uning natijadorligini yanada aniq baholash imkonini beruvchi ayrim jihatlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq. Xususan, qarorda tavsiyalarni ko'rib chiqish muddati, qayta hisobot sanasi, betonlashtiriladigan tarmoqlar hajmi, suv yo'qotishlarini kamaytirish ko'rsatkichi, subsidiya va kreditlarning natijadorlik mezonlari hamda tavsiyalar ijrosi bilan bog'liq keyingi choralarni yanada aniq belgilash mumkin. Parlament qarorining har bir bandini texnik loyiha hujjati darajasida batafsillashtirish talab etilmaydi, biroq vazifa, muddat va natija mezonlarining aniqligi keyingi nazoratning izchilligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur misol parlament nazoratini alohida tadbirlarni qayd etishga yo'naltirilgan yondashuvdan natijalarni baholashga asoslangan tizimga bosqichma-bosqich o'tkazish uchun muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv ekologik axborotning sifati va ochiqqligi bilan ham bevosita bog'liq. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining O'zbekiston bo'yicha to'rtinchi ekologik samaradorlik sharhida havo sifati monitoringi, chiqindilar infratuzilmasi, qayta tiklanuvchi energetika va yashil moliyalashtirish yo'nalishlarida ijobiy o'zgarishlar qayd etilishi bilan birga, suv, tuproq, biologik xilma-xillik, xavfli chiqindilar va iqlim siyosati bo'yicha ishonchli monitoring hamda verifikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish zarurligi ko'rsatilgan [8]. Ushbu masala, bir tomondan, ijro boshqaruvining texnik jihatlariga taalluqli bo'lsa, ikkinchi tomondan, parlament nazoratining axborot-tahliliy salohiyatini kuchaytirish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Aniq indikatorlar asosida shakllantirilgan, o'zaro taqqoslanadigan va foydalanish uchun ochiq ma'lumotlar parlament tomonidan xolis va asoslantirilgan baho berish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bois boshqaruv jarayonida "nima qilindi?" degan savol bilan bir qatorda, "uning natijasida qanday o'zgarish yuz berdi?" degan savolga ham dalillarga asoslangan javob berish muhimdir.

Natijaviy ekologik parlament nazorati modeli. Yuqoridagi nazariy xulosalar va O'zbekiston amaliyoti ekologik parlament nazoratini bir martalik tadbir emas, o'zaro bog'langan bosqichlardan iborat doimiy siyosiy-institutsional jarayon sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Shu asosda natijaviy ekologik parlament nazoratining quyidagi sikli taklif etilmoqda: maqsadni aniqlashtirish — mustaqil axborot bazasini shakllantirish — mazmunli hisobdorlikni ta'minlash — natijaviy qaror qabul qilish — ijroni kuzatish va siyosiy-huquqiy oqibatni belgilash — ekologik ta'sirni baholash. Mazkur zanjirning mohiyati nazoratni hisobot eshitish yoki so'rov



yuborish bilan tugatmasdan, siyosiy maqsaddan o'lchanadigan ekologik natijagacha bo'lgan uzviy bog'liqlikni yaratishdan iborat.

Birinchi bosqichda qonun, davlat dasturi yoki budget loyihasida boshlang'ich holat, o'lchanadigan indikator, muddat va mas'ul organ aniq belgilanishi kerak. Ikkinchi bosqichda ijro organi hisoboti audit, statistika, ilmiy tadqiqot, monitoring, sog'liqni saqlash ma'lumotlari, fuqarolar murojaatlari va jamoatchilik kuzatuvlari bilan qiyoslanishi lozim. Uchinchi bosqichda mansabdor shaxs bajarilgan tadbirlarni sanab o'tish bilan cheklanmay, sarflangan resurs, erishilgan natija, yuzaga kelgan muammo va muvaffaqiyatsizlik sabablarini tushuntirishi zarur. To'rtinchi bosqichda parlament qarorida muammo, vazifa, mas'ul subyekt, muddat, natija indikatorlari va qayta hisobot sanasi ko'rsatilishi lozim; "zarur choralar ko'rilsin" kabi umumiy ifodalar siyosiy yo'nalish berishi mumkin, biroq ularning bajarilishini obyektiv tekshirish qiyin.

Beshinchi bosqich nazorat qarorlarining ijrosini yagona reyestr orqali kuzatish hamda qarorlar bajarilmagan taqdirda takroriy eshituv o'tkazish, qo'shimcha parlament so'rovi yuborish, budgetga tuzatish kiritish, qonunchilik tashabbusini ilgari surish yoki mansabdor shaxsning javobgarligi masalasini ko'rib chiqishdan iborat. Oltinchi bosqichda esa uch xil natija qat'iy farqlanishi kerak: institutsional natija — qonun, dastur yoki tartib o'zgardimi; boshqaruv natijasi — ijro organining amaliyoti va resurslar taqsimoti o'zgardimi; ekologik natija — havo, suv, tuproq, chiqindi, yashil hudud yoki biologik xilma-xillik ko'rsatkichi yaxshilandimi. Birinchi ikki daraja uchinchi darajaga olib kelmasa, tizim faoliyat ko'rsatgan bo'lishi mumkin, ammo uning ekologik samarasi hali isbotlanmagan bo'ladi.

Mazkur model parlament nazoratini ijro hokimiyatining kundalik boshqaruv faoliyatini bevosita amalga oshirish sifatida talqin etmaydi. Parlamentning vazifasi ijro organlarining texnik va tashkiliy funksiyalarini bajarish emas, balki qonuniy hamda siyosiy maqsadlarni belgilash, zarur resurslarni tasdiqlash, ijro organlaridan asoslantirilgan hisobot olish, mustaqil dalillar asosida faoliyat natijalarini baholash va belgilangan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlovchi tegishli siyosiy-huquqiy choralarni shakllantirishdan iborat. Shu jihatdan, parlament va ijro hokimiyati vakolatlari o'zaro farqlansa-da, ular ekologik xavfsizlik sohasida umumiy maqsadlarga erishishga xizmat qiluvchi o'zaro bog'liq institutlar sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha parlament nazorati uchun zarur bo'lgan konstitutsiyaviy va qonuniy vositalar mavjud. 2025-yilda suv resurslaridan samarali foydalanish yuzasidan yuborilgan parlament so'rovi vazirning yozma javobi, parlament tavsiyasi va qo'mitaning keyingi nazorat vazifasini bir-biriga bog'lagani bilan ijobiy tajriba hisoblanadi. Biroq uning to'liq natijadorligi qancha suv tejalganligi, tavsiyalar qanday bajarilgani, mablag'lar qaysi mezon asosida sarflangani va keyingi hisobotda qanday ekologik o'zgarish qayd etilgani bilan aniqlanishi lozim.

Shu ma'noda, parlament nazoratini kuchaytirish deganda yangi nazorat shakllari sonini ko'paytirishdan ko'ra, mavjud shakllarning ichki mazmuni va natijaviy bog'liqligini takomillashtirish tushunilishi kerak. Aniq muddat, mas'ul subyekt, o'lchanadigan indikator, mustaqil axborot, qayta hisobot va bajarilmagan holatdagi oqibat bo'lmasa, parlament nazorati tashkiliy faollikni namoyish etadi, ammo uning ekologik xavfsizlikka ta'sirini ishonchli tekshirish qiyinlashadi. Postlegislativ nazorat esa qonun qabul qilinganini emas, uning amalda ishlayotganini; dastur tasdiqlanganini emas, ko'zlangan ekologik maqsadga olib kelganini; mablag' o'zlashtirilganini emas, sarf natijasida ekologik zarar kamayganini baholash imkonini beradi.

Pirovardida, ekologik parlament nazoratining samaradorligi majlislar va so'rovlar soni bilangina emas, balki axborotni ilmiy asoslangan xulosalarga, xulosalarni siyosiy-huquqiy qarorlarga, qarorlarni izchil ijroga, ijroni esa o'lchanadigan ekologik natijalarga aylantirish imkoniyati bilan belgilanadi. Shu asosda parlament ekologik siyosatni shakllantirish va uning ijrosini baholashda faol demokratik institut sifatida namoyon bo'ladi hamda bugungi ehtiyojlar bilan kelajak avlodlar manfaatlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Ekologik xavfsizlik esa deklarativ yondashuv yoki alohida tadbirlar majmui sifatida emas, balki qonuniylik, hisobdorlik, ilmiy asoslanganlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga tayanuvchi barqaror siyosiy-huquqiy qadriyat sifatida qaror topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/6445145> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
2. O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati to'g'risida"gi Qonuni, 2016-yil 11-aprel, O'RQ-403-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/2929477> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining suv resurslaridan samarali foydalanish masalalariga oid 2025-yil 9-sentabrdagi 1272–V-son va 2025-yil 23-sentabrdagi 1327–V-son qarorlari



- // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. — 2025. — 9-son (1594). — B. 41–42, 69–70. URL: https://parliament.gov.uz/media/post_attachments/9_2025.pdf (murojaat sanasi: 21.07.2026).
4. March J. G., Olsen J. P. The New Institutionalism: Organizational Factors in Political Life // American Political Science Review. — 1984. — Vol. 78, No. 3. — P. 734–749. DOI: 10.2307/1961840. URL: <https://doi.org/10.2307/1961840> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
 5. Bovens M. Analysing and Assessing Accountability: A Conceptual Framework // European Law Journal. — 2007. — Vol. 13, No. 4. — P. 447–468. DOI: 10.1111/j.1468-0386.2007.00378.x. URL: <https://doi.org/10.1111/j.1468-0386.2007.00378.x> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
 6. De Vrieze F., Norton P. The Significance of Post-Legislative Scrutiny // The Journal of Legislative Studies. — 2020. — Vol. 26, No. 3. — P. 349–361. DOI: 10.1080/13572334.2020.1780008. URL: <https://doi.org/10.1080/13572334.2020.1780008> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
 7. Hirst D. Post-Legislative Scrutiny of Climate and Environment Legislation: Guide for Parliamentary Practice. — London: Westminster Foundation for Democracy, 2021. — 41 p. URL: <https://www.wfd.org/what-we-do/resources/post-legislative-scrutiny-climate-and-environment-legislation-guide> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
 8. United Nations Economic Commission for Europe. Environmental Performance Reviews: Uzbekistan. Fourth Review. — Geneva: United Nations, 2026. — Environmental Performance Reviews Series. — ECE/CEP/204. URL: <https://unece.org/environment-policy/publications/4th-environmental-performance-review-uzbekistan> (murojaat sanasi: 21.07.2026).



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

